

GRIPP KASALLIGINING TARIXI

Jakbaraliyeva Yulduz Ravshanbek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Namangan filiali davolash ishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gripp kasalligining kelib chiqish tarixi va qayerda aniqlangani haqida keltirib o'tilgan. Qolaversa bu kasallik insonga qanday yuqishi va kasallik qanday davom etishi va uning davo choralari haqida yoritilib o'tilgan. Kasallik turlari ham bir qator aytib o'tilgan va kasallikning oldini olish chora tadbirlari va ularga qarshi qo'llaniladigan vaksinatsiyalar haqida keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Gripp, kasallik, vaksina, karantin, niqob, muolaja, davo, epidimiologiya.*

Аннотация: *В данной статье описывается история возникновения гриппа и место его первого обнаружения. Кроме того, объясняются пути передачи гриппа человеку, течение заболевания и методы его лечения. Также упоминается ряд форм заболевания, а также обсуждаются меры профилактики и вакцинация против них.*

Ключевые слова: *грипп, заболевание, вакцина, карантин, маска, лечение, излечение, эпидемиология.*

Annotation: *This article discusses the history of the origin of influenza and where it was first discovered. In addition, it explains how this disease is transmitted to humans, how the disease progresses, and its treatment measures. A number of types of the disease are also mentioned, and preventive measures and vaccinations against them are discussed.*

Keywords: *Flu, disease, vaccine, quarantine, mask, treatment, cure, epidemiology.*

Ispan grippi (Ispanka) 1918-yilgi gripp pandemiyasi. Ispan grippi H1N1ning A virusi keltirib chiqargan va katta talofatlarga olib kelgan, global gripp pandemiyasi hisoblanadi. Qayd etilgan eng birinchi holat 1918-yilning mart oyida Qo'shma Shtatlarning Kanzas shtatida sodir bo'la boshlagan. AQSHdan keyingi yangi holatlar shu yilning aprel oyida Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada qayd etilgan. Oradan ikki yil o'tib, butun dunyo aholisining deyarli uchdan bir qismi yoki taxminan 500 million kishi ushbu kasallikni o'ziga yuqtirib kasallangan. So'ngra bu



kasallikdan vafot etganlar soni 17 milliondan 50 milliongacha yetgan, oradan biroz vaqt o'tib 100 millionga yetgan, bu ko'rsatkichlar ispan grippini tarixdagi eng halokatli pandemiyalardan biriga aylantirgan. Pandemiya Birinchi Jahon Urushining so'ngi yillariga yaqin boshlangan, urushda qatnashayotgan mamlakatlar rahbarlari g'alayonlar boshlanib ketmasligi uchun pandemiya haqidagi xabarni oshkor qilishmagan, ammo neytral ommaviy axborot vositalari Ispaniyada avj olgani pandemiya haqida xabarlar tarqatisha boshlagan. Ispaniyani kasallik o'chog'i degan noto'g'ri ma'lumotlar tarqatishgan va xalqlar orasida bu pandemiya "Ispan grippi" deb nomlangan. Tarixiy epidemiologik ma'lumotlarda bu pandemiyaning geografik kelib chiqishi haqida aniq ma'lumotlar aniqlanmagan. Ispan grippi boshqa epidemiyalar singari kekxa va yoshlarga bir xil ta'sir qilgan ammo kasallanganlar orasida o'lim holati kattalarga nisbatan yoshlarda ko'proq kuzatilgan. Olimlar o'lim sonining ko'p bo'lishiga suv orqali yuqadigan kasalliklarning anomaliyalari ispan grippi bilan bir vaqtda odamlarga ta'sir qilgan degan taxminni ilg'a surishgan. Virusdan zararlanganlar orasida o'lim sonining ko'p bo'lishiga, kasallikning sitokin bo'ronini qo'zg'atishi va buning oqibatida yoshlardagi immunitet kekxlari immunitetiga nisbatan tezroq halok bo'lishi kuzatilgan ammo virusli infeksiya avvalgi gripp shtammlariga qaraganda ancha tajovuzkor hisoblangan. Noto'g'ri ovqatlanish, urush tufayli antisanitariya holati bilan to'lib toshgan tibbiy lagerlar va kasalxonalar, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik kasallik infeksiyasini kuchaytirgan natijada virus bilan zararlanganlarning ko'pchiligi vafot etishgan. 1918-yilda sodir bo'lgan ispan grippi H1N1 grippi A virusi keltirib chiqargan uchta gripp pandemiyasining birinchisi bo'lgan. Bundan tashqari yana 1977-yilgi rus grippi va 2009-yilgi cho'chqa grippi ham H1N1 virusidan kelib chiqqan.

Gripp (frans. gripe), inflyuensa ((ital. influenza, lot. infl uo – tarqalaman) – 1780—82-yillarda gripp yoppasiga tarqalganda unga berilgan nom.) – keng tarqalgan o'tkir yuqumli virusli kasallik hisoblanadi, intoksikatsiya va yuqori nafas yo'llari shilliq qavatini zararlanishi bilan kechadigan yaqqol intoksikatsiya kuzatiladi, nerv va yurak-tomir sistemasi faoliyati buziladi. Grippni viruslar qo'zg'atadi; ularning A, A., A2, V, S turlari ma'lum.

Epidemiologiyasi

Viruslar vaqt-vaqti bilan antigen tuzilishini o'zgartirib turadi. Jumladan, A turining o'zida antigen xususiyatiga qarab A (HjN,), A (H3N2) antigenli viruslar farq qilinadi. O'zbekistonda Respublikasida, asosan, A, ayrim hollarda, V turi uchrab turadi. Gripp viruslari juda beqaror; xona sharoitida bir necha soatdan so'ng yuqish ehtimoli yo'qoladi, quyosh nuri ta'sirida tez nobud



bo'ladi. Past haroratda, ayniqsa xavo harorati 0° dan past bo'lganda virus uzoq saqlanadi. Shu sababli gripp kasalligining ko'payishi sovuq mavsumda ko'proq kuzatiladi. Dezinfeksiyalovchi vositalar (xloramin, xlorli ohak eritmalari, formalin, kislota va ishqorlar) ta'sirida viruslar tez nobud bo'ladi. Isiriq tutuni ham gripp viruslarini o'ldiradi.

Gripp butun dunyoga tarqalgan, har 2 – 3 yilda gripp epidemiyasi qayd etiladi. Infeksiya manbai bemor, u aksirganida, yo'talganida, gaplashganila virus havo zarrachalari va so'lak tomchilari bilan atrof muhitga tarqaladi. Ayniqsa kasallikning dastlabki kunlarida virus bemor organizmidan ko'plab ajralib yaqin atrofdagi odamlarga nafas yo'llari orqali tushadi.

Aholining barcha tabaqalari (bolalar va keksalar ham) bu kasallikka moyil. Nimjon, turli xastaliklarga chalingan odamlarga gripp tez yuqadi. Jismonan baquvvat, chiniqqan odamlarda kasallik kam kuzatiladi.

Klinikasi

Kasallikning yashirin (inkubatsion) davri juda qisqa – bir necha soatdan 1 – 2 kungacha. Kasallik to'satdan boshlanadi. Sog'lom yurgan odam birdan mazasi qochib eti uvishadi, lohas bo'ladi, harorati ko'tarila boshlaydi. Oradan 1 – 2 soat o'tgach, kasallikning asosiy alomatlari namoyon bo'ladi. Isitma qisqa vaqt ichida 39 – 40° gacha ko'tariladi, bemor junjikib, sovuqotadi, qaltiraydi. Harorat ko'tarilib bo'lgach, bemorning badani qiziydi, betoqat bo'ladi. A'zoi badani, boshi, qo'l-oyoq muskullari zirqirab og'riydi. Ayniqsa, peshona va chakka sohasida og'riq kuchli bo'ladi. Ba'zan bemorning boshi aylanib, [[ko'z]]i tinadi. Ko'z yoshlanadi, qizarib ketadi, ko'z soqqasida og'riq bo'ladi. Burun „bitib“ qoladi, nafas olish qiyinlashadi, tomog'i og'riydi, og'zi qaqraydi, quruq yo'tal paydo bo'ladi. Gripp yengil, o'rtacha va juda og'ir o'tadi. Kasallik og'irroq kechganda ko'ngil aynishi, qusish, burun qonashi ham mumkin.

Gripp keksalar va bolalarda ancha og'ir kechadi, organizmda ilgaridan mavjud bo'lgan surunkali kasalliklar, odatda, zo'rayadi, ba'zan boshqa kasalliklar – zotiljam qo'shiladi. Grippdan keyin o'pka shamollashi, buyrak, miya pardalari nerv tugunlari va tolalarining yallig'lanishi kabi asoratlar kuzatiladi.

Davolash

Gripp bilan og'rigan bemorni kasalxonaga yotqizish shart emas, uyda alohida xonada yotgani ma'qul. Faqat kasallik og'ir kechgan hollarda bemor kasalxonaga yotqiziladi. Kasallikning og'ir-yengil o'tishidan qat'i nazar, bemor yotishi lozim. Viruslarga ta'sir etuvchi remantadin, interferon kabi dorilar faqat dastlabki kunlarda qo'llanilsa yaxshi naf beradi. Shirchoy, limonli murabbo (ayniqsa malina, smorodinali), qatiq, qoqurum ichib terlash bemor



ahvolini yaxshilaydi. Vrach tavsiyasi bilan og‘riq qoldiruvchi dorilar va antibiotiklar tavsiya etiladi; Oldini olish. Gripp tarqalish ehtimoli bo‘lgan kezlari maxsus profilaktika maqsadida gripp vaksinasi bilan emlash o‘tkaziladi. Asosan bolalar va keksa yoshdagilar emlanadi; vaksina burunga tomiziladi. Grippga qarshi gammaglobulin qilinadi. Burunga profilaktika maqsadida interferon tomizib turish, oksolin moyi surtish, bemor bor xonada isiriq tutatib turish maqsadga muvofiq.

Hayvonlarda grippni Orthomyxo-duridae oilasiga mansub viruslar qo‘zg‘atadi. Cho‘chqalar, otlar, qoramol va parrandalar kasallanadi. Otlarda gripp qisqa muddatli isitma, qaltirash, ko‘zdan yosh oqishi, yuqori nafas yo‘llari katari bilan boshlanadi, quruq yo‘tal tutadi. Kasallikda laringotraxeit, bronxit, og‘ir hollarda pnevmoniya kuzatiladi. Qoramollarda kasallik o‘tkir kechadi, tana harorati ko‘tariladi, kon’yunktivit, rinit yuz beradi, ishtaha yo‘qolishi mumkin. Parrandalarda gripp (parrandalar o‘lati) epizootiya ko‘rinishida kechadi, nafas va hazm a‘zolari shikastlanadi. Gripp insonlarni o‘ldirishi ham mumkin gripp dunyodagi eng yomon kasallikdir bu kasalga chalinganlar o‘lishi ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gripp>
2. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ispan-grippi/>

